O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOShKENT DAVLAT SHARQShUNOSLIK UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor G.Rixsiyeva
_____________
202_1_ yil “28” avgust

# SHARQ XALQLARI ADABIYOTI POETIKASI (ARAB)

## FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 100000 – Gumanitar soha |
| **Ta‘lim sohasi:** | 120000 – Gumanitarfanlar |
| **Mutaxassislik:** | 70230502 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari va tadqiqot yo‘nalishlari) |

Toshkent – 2021

| | |
|---|---|
| | T., "O'zbekiston" – 2017<br>4. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" – T., "O'zbekiston" – 2016, 56 bet.<br>5. Аминева В.Р. Типи диалогических отношений между националніми литературами как педмет компаративистики / Знание понимание, умение. - М.2008 №4.- С.88-93<br>**Axborot manbalari**<br>6. 6.www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali<br>7. 7.www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>8. 8.www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)<br>9. 9.www.academy.uz (Fanlar akademiyasi) |
| **7.** | O'quv dasturi "Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "27" 08 dagi "1" –sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>**Xodjayeva R.U.** – TDSHU "Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyoqsiy adabiyotshunoslik" kafedrasi professori, f.f.d. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>**D.Z.Muxiddinova** - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik" kafedrasi mudiri, f.f.d., dosent<br>**Tilavov A.** - A.Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.n.; |

tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**3.** **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida *magistr:***

- qiyosiy adabiyotshunoslik fani bilan tanishtirish, ularni badiiy asar bilan ishlashga, undagi nazariy masalalar ***tasavvurga ega bo'lishi***;
iyosiy-chogishtirma tahlil qonuniyatlarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

- o'zaro adabiy jarayon shakllari, o'zaro adabiy ta'sir va adabiy aloqalar shakllarini o'rganish va Sharq ва G'арб: madaniyatlar dialogini o'rganishda ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

**4.** **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash.

**5.** **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

**6.** **Asosiy adabiyotlar**


1. Adabiy tur va danrlar. Darslik. 3 tomlik. T.1., 2-T.: 1992.
2. Aristotel. Poetika. Qo'llanma. T., 2005.
3. Boboev T., Boboeva Z. Badiiy san'atlar. O'quv metodik qo'llanma. T., 2000.
4. Xodjaeva R., Qosimova G. Yapon adabiyotida zamonaviy adabiy yo'nalishlar va oqimlar. O'quv qo'llanma. T., 2019. 239 b.
5. Quronov D. Adabiyotshunoslik asoslari. T., 2018
6. Umurov N. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T., 2002
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T., 2018

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" – T., "O'zbekiston" – 2017, 48 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz" – T., "O'zbekiston" – 2017, 488 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" –


| Fan/modul kodi<br>SAP104 | | O'quv yili<br>2021-2022 | Semestr<br>2 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Sharq adabiyoti poetikasi (arab) | | 60 | 60 | 120 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – fanning mazmuni milliy badiiy adabiyot, uning qonuniyatlari, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari: janr, uning shakli va mazmun jihatlarining o'zaro munosabati, kompozisiya tiplari, syujet qurilishi va boshqa poetikaga oid barcha nazariy masalalani qamraydi. Poetika qoidalarini bilish adabiyot haqida so'z yuritish, uni o'rganish, unga baho berish va umuman adabiyotshunos bo'lish huquqini berishni ta'minlovchi fandir. Sharq adabiyotida badiiyatshunoslik masalalari magistrantga adabiyot fanining asosi nimadan iborat ekanligi haqida to'liq ma'lumot berish bilan bir qatorda har bir sharq adabiyotining o'ziga hos qonuniyatlari, bu qonuniyatlarning shakllanishiga sabab bo'lgan omillar va ularning tarixiy rivojlanishida yuz bergan tashqi ta'sir masalalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

**Fanning vazifasi** – magistrantlarga o'rganilayotgan mamlakat adabiyoti poetikasi, adabiyot nazariyasi fanlarida o'rganilayotgan milliy badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari va xarakteri, metodlari, janrlar, poetikani tashkil qiladigan asarning badiiy tili, uslubi, turli badiiy – tasviriy va ifodaviy vositalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Poetika tushunchasi, uning keng va tor ma'nolari**

Poetika – adabiyotshunoslikning yetakchi nazariy fani. Poetika tushunchasi. Poetikani o'zlashtirishdagi vazifalar. Poetika atamasini keng va tor ma'nolari. Aristotel "Poetikasi".

**2-mavzu. Johiliya davri adabiyoti poetikasi**

Johiliya davri arab adabiyoti poetikasining hususiyati. Muloqotlar. Obrazlari, kompozitsiyasi, syujeti

**3-mavzu. Ilk islom va ummaviylar davri adabiyoti**

Qur'oni Karimning paydo bo'lishi va uning adabiyot poetikasiga ta'siri. Poetikada o'zgarishlar. Yangi obrazlar. Ummaviylar davri she'riy poetikasi.

**4-mavzu. Yangilanish davri adabiyoti poetikasi**

VIII-IX asr arab poetikasi rivoji. Ilm al-balog'a, uning tarkibi. Yangilaninsh davri shoirlarning ijodi. Yangi janrlar va obrazlar.

**5-mavzu. An'anaga qaytish adabiyoti poetikasi.**

An'anaga qaytish adabiyoti namoyandalari. Asarlar poetikasi.

**6-mavzu. Arab mumtoz she'riyatida individual mualliflikning paydo bo'lishi.**

Arab mumtoz she'riyatida individual mualliflikning namoyon bo'lishi. Yangi janrlar.

**7-mavzu. XIV-XVIII asrlar adabiyoti poetikasi**

Mamluklar davri poetikasining o'ziga xosligi. Yangi janrlarning paydo bo'lishi. Obrazlar transformatsiyasi. "Adaba" poetikasi.

**8-mavzu. Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti**

Ma'rifatparvarlik davri adabiyoti poetikasida o'zgarishlar. Yangi mumtoz she'riyat poetikasi. Publitistika poetikasi.

**9-mavzu. Arab adabiyotida ("Yangi maktab"realizmning poetikasi)**

Arab adabiyotida ("Yangi maktab") realizmining poetikasi. Arab adabiyotida "Al-ittihoj al-vijdaniya" yo'nalishi poetikasi. Yangi maktab vakillari ijodida ma'naviy adabiy meros.

**10-mavzu. Arab adabiyotida "yangi she'r" oqimi**

Arab adabiyotida "yangi she'r" oqiminig 1 va 2 bosqichi.

**11- mavzu. XX asr ikkinch yarmida realist ijodiyot.**

"Yangi realist" yozuvchilari ijodi. Ijtimoiy adabiyot poetikasi. Nagib Mahfuz va Yusuf Idris ijodiyoti.

**12- mavzu. Arab adabiyotida "Yangi mavj" oqimining poetikasi**

Misr va Saudiya adabiyotida "Yangi mavj" va "Yangi burilish" nasrnavislik poetikasining o'ziga hosligi. Arab adabiyotida "Yangi roman" oqimining poetikasi. Transformatsiyasi.

**13-mavzu. Juda qisqa hikoyalar poetikasi.**

"Juda qisqa hikoyalar'da badiiy nutq. Obrazlar tang osti ma'nosi. poetikasi.

**14-mavzu. Hujjatli roman poetikasi.**

Hujjatli romanda badiiy matn va hujjat almashinuvi

**15-мавзу. Postmodernizm romani poetikasi**

Postmodernizm romanida kinoyaviylik, obrazlar transformatsiyasi. Matn o'yini

**II. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Aristotelning "Poetika"si bilan tanishish va uni tahlil qilish.
2. "Muallaqa"da inson va tabiat olami (Imrul Qays va Antara)
3. Ka'b ibn Zuheyr va boshqa adiblarning poetikasi. Al-Axtar, Farazdak she'ri.
4. Johizning "Kitob-ul-hayvan" asarining poetikasi.
5. Abu Nuvos, Abul-Atahiya, Bashor ibn Burd va boshqa shoirlarning she'riyati poetikasi.
6. Al-Butiri va Abu Tammom she'riyati poetikasi.
7. Al-Mutanabi, Abu A'la al Maari va boshqalar she'rlari poetikasi
8. Arab – ispan maktabi shoirlari ijodi poetikasi.
9. Mamluklar davri adabiyoti namoyandalari, Al-Busiriyning "Burda" qasidasini poetikasi
10. Publitist yozuvchilarning asarlarining poetikasi. Al-Kavokibiy, Jamoliddin al-Afg'oniy, Al-Yazjiy, Butrus va boshqalar.
11. Al-Barudi, Ash-Shavqiy, Hofiz Ibrohim va boshqalar she'riyati poetikasi.
12. Djubran Halil Djubran asarlari poetikasi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Nega Farobiyni "Ikkinchi murabbiy" deb atashgan?
2. Muloqotlarda tabiat va hayvonlar qanday tasvir qilingan?
3. Qur'on nozil bo'lishidan keyin poetikada qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
4. Arablarni harbiy yurishlari qaaqsi janrlarni rvojlantirdi?
5. Yangi mumtoz she'r mumtoz she'rdan qaysi jihatdan farq qiladi?
6. Nega yangi shoirlar aruzning ba'zi qoidalaridan voz kechdi?
7. Postmodernizm adabiyoti uslub jihatdan numaga e'tibor berdi?

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar